

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

BOLALARNING TILGA BO'LGAN QIZIQISHLARNI OSHIRISH

Jolayeva Sevara Nodirboy qizi.

Absalomova Sevara Azimjon qizi

JDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti.

E-mail address: sevarajolayeva@gmail.com.

Tel nomer.+998904941376

Anatatsiya : Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo hozirda o'z ona-tilidan tashqari yana bir nechta tillarni bilishni talab qilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar soni ko'p guruhlarda chet-tilini o'rgatish va uni qanday tashkil etish hamda bolalarga ingliz tili mashg'ulotlarini qanday tartibda o'tish lozimligi guruhdagi bolalar soni kam bo'lishi kerakligi, katta va tayyorlov guruhlarda ingliz tili mashg'ulotining o'rnini to'g'risida fikrlar mazmuni yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlari: xorijiy til, rivojlanish, faollik, kichik darsning borishi, kichik, o'rta, katta, tayyorlov, guruhlarda ingliz tili.

Maktabgacha ta'lim bosqichi bolalarni kashf qilish bosqichidir. Bu bosqichda bolalar qiziquvchan, intiluvchan, hamda taqlidchan ham bo'ladi va bu bosqich bolalarni ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalash va kamolga yetkazish bosqichi deb ayta olamiz. Kelgusida bolalarni yetuk va malakali mutaxassislar qilib tarbiyalashda xorijiy tilning o'rnini beqiyosdir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning mohiyati shundan iboratki ularni maktabga tayyorlash va ingliz tili to'g'risidagi ilk tushunchalarni va bilimlarni shakllantirish, ingliz tilidagi so'zlarni nutqida to'g'ri qo'llay olish va talaffuz qilishga o'rgatish hamda ularning ingliz tilidagi so'z boyligini oshirishdan iborat. Bolalarga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili mashg'ulotlarining malakali mutaxassislar tomonidan to'g'ri va qiziqarli tashkil etilishi va olib borilishi orqali bolalarni xorijiy tilga bo'lgan qiziqishi hamda e'tibori oshib bormoqda desak adashmagan bo'lamiz. Albatta hammamizga ma'lumki maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga xorijiy tilni o'rgatish oson ish emas. Hamma narsaning o'ziga yarasha qiyinchiligi bo'lgani kabi bolaga tilni o'rgatish ham tarbiyachidan o'ziga yarasha mahoratni hamda mas'uliyatni talab qiladi. Tarbiyachi o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi o'z ishini sevishi va unga berilgan topshiriq va vazifalarni chindildan amalga oshirishi, bolaga o'z farzandi kabi yaxshi munosabatda bo'lishi, zamonaviy texnologiyalar hamda inovatsion ta'lim metodlaridan foydalangan holda mashg'ulotlarni a'lo darajada tashkil etishi tarbiyachi hamda ingliz tili rahbariga qo'yilgan talablardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ingliz tili mashg'ulotlarni

tashkil etishda birinchi o'rinda tarbiyachi va ingliz tili rahbari puhta tayyorgarlik ko'rishi lozim. Chet tilini o'qitishning muvaffaqiyati ko'plab omillar bolaning tug'ma qobiliyatlari uning fanga qiziqishi tarbiyachining mahorati bilan belgilanadi. Mamlakatimiz kelajagi buyuk bo'lishi uchun yoshlarimizga ta'lim tarbiya berishni maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlash lozim hamda kelajakda yetuk barkamol shaxs bo'lib kamol topishi uchun dunyoqarshlarni, tasavvur olamni kengaytirishni va keng doirada fikrlashni hamda malakali kadr bo'lib ulg'ayishida maktabgacha ta'limning o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligini bilishimiz mumkin. Bolalarga ingliz tilini o'rgatishda hamda ingliz tili mashg'ulotlarini tashkil etishda nimalarni inobatga olish kerak degan savolga birgalikda javob topamiz, shuni aytilish kerakki ingliz tili rahbari mashg'ulot tashkil etishdan bir kun avval o'z ustida ishlashi, mashg'ulotga mohirona va mas'uliyatli yondashgan holda tayyorlangan bo'lishi, bolalarning yosh, psixologik fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg'ulotga mos bo'lgan ta'lim texnologiyalaridan, turli xil inovatsion va interfaol ta'lim metodlaridan ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda tashkil etish lozim. Mashg'ulotda foydalanish kerak bo'lgan jihozlar o'quv hamda ko'rgazmali qurollar yoki amaliy mashg'ulotda kerak bo'ladigan jihozlar, tarqatma materiallari va o'quv vositalari guruhdagi bolalar soniga yetarli miqdorda bo'lishini ham alohida e'tiborga va inobatga olishi lozim hisoblanadi. Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalar soni ko'p bo'lgan guruhlar ham mavjud bu guruhlarda ingliz tili mashg'ulotlarni kichik kichik guruhlarga bo'lib o'rganish ahamiyatli hisoblanadi hamda buning natijasida bolalar o'rtasida o'zaro raqobat, qilish tushunchasi hamda intilish, ijodkorlik, intiluvchanlik, tezkorlik, chaqqonlik kabi ma'naviy hamda jismoniy sifatlar birgalikda shakllantiriladi. Ko'plab psixolog olimlarimiz izlanishlari natijasida ko'ra ingliz tili mashg'ulotlarida guruhdagi bolalar soni 15 ga yaqin bo'lsa ham bolalarga tilni o'rgatish bir qancha qiyinchilik tug'diradi va samarasiz hisoblanadi degan fikrlarni bildirishgan. Buning sababi shundaki bola bilan ingliz tili rahbari individual tarzda ishlashi hamda u bilan savol javob qilishi, va amaliy, ijodiy, didaktik, harakatli o'yinlarda barcha bolalar birdek qatnashish kerakligini inobatga olishi lozim. Agar guruhdagi bolalarning soni 10 tadan oshmasa ingliz tili rahbari ham hech qanday qiyinchiliksiz barcha bolalar bilan alohida ishlashi va mashg'ulotga jalb qila olishi uchun yetarli bo'ladi. Ingliz tili mashg'ulotlarining davomiyligi barcha yosh bosqichlarida turlicha olib boriladi. Misol uchun kichik va o'rta guruh bolalariga 10-15 daqiqa, katta va tayyorlov guruhbolalariga esa 20-25 daqiqadan oshmasligi lozim hisoblanadi. Katta va tayyorlov guruh bolalariga ingliz tili mashg'ulotlarni o'tishda ijodiy o'yinlardan turli xil inovatsion ta'lim metodlaridan hamda harakatli didaktik o'yinlardan faol tarzda foydalanish lozim sababi katta va tayyorlov guruh bolalari kichik va o'rta guruh bolalariga nisbatan ancha harakatchan bo'lishi, lug'at boyligining ko'pligi bilan farq qilib hamda ajralib turadi. Masalan katta va tayyorlov guruh bolalariga ingliz tilini o'rgatishda

o'yinning turlarida juda keng foydalanamiz. Olimlarimiz shunday deydi o'yin bolaning muayyan ko'nikma va malakasini rivojlantiradi, bolaning idrok etish hissini kuchaytiradi, dunyoqarashini, tasavvur olamini hamda nutqidagi nuqsonlarni va kamchiliklarni tog'irlashda va kishilar orasidagi kommunikativ muloqot ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida yetakchi omil bo'lib hizmat qiladi..Bolalar soni ko'p bo'lgan guruhlarda ingliz tili rahbari va tarbiyachi birgalikda mashg'ulotni tashkil etshi hamda birgalikda olib borishi lozim hisoblanadi.Bolalar soni ko'p bo'lgan guruhlarda mashg'ulotni drammatizatsiya usulidan foydalangan holda tashkil etish ham ancha samarali usul hisoblanadi. Bu ham tarbiyalanuvchilarning xorijiy tilni tez va oson o'rganishlariga yordam beradi .Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning vaqtlarni mazmunli tashkil etish tarbiyachining va ingliz tili rahbarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bolalarning tilga bo'lgan qiziqishlarni oshirish orqali boshqa davlatlarning ta'lim tizimi, madaniyati, qadriyati,urf-odat va an'analarini o'rganishga katta zamin yartadi. . Rus pedagog olimlari K. D. Ushinskiy shunday yozadi “ Bola biz bir necha yil o'rgana olmaydigan darajada chet tilini bir necha oyda o'rganadi”maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga chet tilini oson o'rgatishga yordam beradigan usullardan va metodlardan biri bu multimediyalar orqali o'rgatishdir. Bu bolalarning idrokini, dunyoqarashini,fikrlash qobiliyatini kengaytirishga va ingliz tilidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishlariga ko'mak bo'la oladi desak adashmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yili 30 – sentabrdagi “ Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi PQ – 3955- sonly qaroi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 – maydagi “ O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida”gi qarori PQ- 4312- sonly qarori.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ingiliz tilini o'rgatish usullai .Majmua .
4. M. Berdiyeva, S. Bo'ronova Maktabgacha va boshlang'ich talimda ingiliz tili mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishning samarali usullari.